



IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARDA XORIJIY TILNI O'RGATISH HAMDA GENDER QARASHLARIDAGI MULOQOT XULQINING O'ZIGA XOS STEREOTIPLARI

ADChTI, 2 kurs magistranti M.B.Samatova

Annotasiya: Ushbu maqola imkoniyati cheklangan shaxslarda xorijiy tilni o'rgatish va ularning ham til bilish huquqi borligi va gender tushunchasi va uning qarashlardagi o'ziga xos stereotiplari masalasiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *imkoniyati cheklangan shaxslar, xorijiy til, himoyaga muhtoj, gender qarashlar, muloqot malakasi, stereotiplar.*

Abstract: This article is devoted to the issue of teaching a foreign language to persons with disabilities and their right to learn a language, and the concept of gender and its specific stereotypes in views.

Key words: *persons with disabilities, foreign language, needs protection, gender views, communication skills, stereotypes.*

Istiqlol yillarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlariga moddiy yordam ko'rsatishning o'ziga xos milliy mexanizmi ishlab chiqildi. Har qanday ijtimoiy himoya insonning haq-huquqi himoya qilinadigan jamiyat qaror topgandagina to'la amalga oshadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi isbotidir. Imkoniyati cheklangan shaxslarga ta'lim-tarbiya berish, salomatligini muhofaza qilish, mehnatga qobiliyati bo'lmagan imkoniyati cheklanganlarni esa ish bilan ta'minlash masalalariga e'tibor kuchaytirilgan. Ayniqsa, ularga hurmat ko'rsatish uning huquqlarini himoya qilish, ruhini ko'tarish, xorijiy tillarni o'rgatishda gender qarashlar orqali singdirib borish eng asosiy qilinadigan tamoyillardir.

Xalqimiz bejiz aytmagan: Til bilganni el bilar, tilga e'tibor - elga e'tibor, til - dil tarjimoni kabilarni xalqimiz bejiz aytmagan. Bolalar bizning kelajagimiz ekan, ayniqsa ko'ngli yarim imkoniyati cheklangan farzandlarimizni xorijiy tilga ayniqsa fransuz tiliga qiziqtirish, ular haqida g'amxo'rlik qilish, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib, rivojlanish yo'lida dadil qadamlar bilan borayotgan davlatimiz uchun biz pedagoglar mas'ulmiz. Shunday dolzarb vazifalardan biri, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni, aniqrog'i



imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalari bilan faol ish olib borishdir. Ijtimoiy himoyalash tizimining ustuvorligi imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy faollashtirish masalasini hal qilishga keng yo‘l ochadi hamda badiiy ijod namunalaridan keng foydalanish imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy faollashtirishning ustuvor yo‘llaridan biridir.

Tilshunoslikda genderga to‘xtaladigan bo‘lsak, kategoriya bo‘lib, uni o‘rganish dastlab feminizmning ijtimoiy harakat sifatida tarqalishi va postmodernizmning ilmiy paradigma sifatida tarqalishi bilan bog‘liq edi, ammo bir necha o‘n yilliklardan so‘ng gender tadqiqotlari ushbu yo‘nalishlardan ustun keldi va tilshunoslik, sosiologiya, tarix va boshqa fanlarning kesishish nuqtasida fanlararo tadqiqotlar sohasiga aylandi.

“Gender” tushunchasiga ta’rif berishda bir xillik mavjud emas, ammo ko‘pchilik olimlar unda xulq - atvor stereotiplarining, (shu jumladan muloqot xulqini) shakllanishida jins rolini va ijtimoiy rolni ko‘rishga moyil. Zamonaviy hayotda “gender” odamning biologik jinsi bilan bilvosita bog‘liqdir.

Gender tilshunosligi ko‘plab muammolarni o‘rganadi: erkaklar va ayollar nutqining yaratilishi va idrok etilishi, erkak va ayolning o‘zaro tushunish muammolari, tilning turli darajalarida erkaklar va ayollarning nutqidagi farqlar, dunyoning gender manzarasi tavsifi, tildagi gender stereotiplarning o‘rni.

Jahon tilshunosligidan farq qilib, Rossiya gender tilshunosligining o‘ziga xos xususiyati feministik tendensiyaning yo‘qligida, chunki rus tilida rod va qo‘shimchalar grammatik kategoriyasi yordamida har doim odamning qaysi jins vakili ekanligini aks ettirish imkoni bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklar gender yondashuv asosida kognitiv-pragmatik aspektda chuqur o‘rganilishi, “ayol” konsepti va u bilan bog‘liq boshqa tushunchalar maxsus o‘rganilishi kerak. O‘zbek tili lingvistik sathlarining gender xususiyatlari to‘la ochib berilishi lozim.

Gender tadqiqotlarining bir qismi “ayollik” semasi tilda qanday aks ettirilganligiga qaratilgan. Masalan, tarkibida “erkak” semasi bo‘lgan so‘zlarda bu semani siyosiy uslub doirasida, tushunchaning mohiyatiga mos keladimi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, “ayol” semasi bilan almashtirish kerak, degan qarashlar bor:



“Ingliz tilida insoniyat so‘zi mankind, nega womankind emas? Shunaqa. Chunki woman–ayol so‘zining o‘ziman– erkak so‘zidan yasalgan, bu bilan kurashish mumkin va zarur. Masalan, jinsiy qaramlikning kamsituvchi rishtalarini o‘chirish uchun hech bo‘lmaganda, imlo qoidalariga womyn (ko‘plikdawimyn), tarzida yozish kiritilsin”.

Ingliz tilidagi “Miss” va “Missis” atamaları qo‘llanishi ham o‘ziga xos. Dastlab, yosh qizga nisbatan “miss” atamasi qo‘llangan, agar unga “missis” atamasi qo‘llansa, uni qaritib yuborishgani uchun qiz xafa bo‘lishi mumkin edi yoki, aksincha, turmush qurgan ayolga nisbatan “miss” deb murojaat qilish uni xafa qilgan. Bu atamalar ayollarning yosh ko‘rsatkichlariga ham ishora qilgan. O‘sha paytlarda erta turmush qurish qisqa umr ko‘rish bilan va jamiyat qoidalari bog‘liq edi. Tibbiyotning muvaffaqiyatlari qizlarni kechroq turmushga chiqishiga sabab bo‘ldi va “miss, missis”ning farqlanish mezonini ham o‘zgardi. Bundan tashqari, nikoh to‘g‘risidagi ma‘lumotlar shaxsiy hayotning bir qismiga aylandi – inson nikohdagi mavqeyini oshkor qilmaslik huquqiga ega bo‘ldi, chunki an’anaviy nikohga munosabat o‘zgardi va “turmush” tushunchasi oilaviy hayotning yangi shakllari – mehmon nikohi, fuqarolik nikohi va boshqalar tufayli kengaydi. XX asrning ikkinchi yarmida universal “[miz]” atamasi paydo bo‘ldi, u yozuvda “miss” ning qisqartirilgan shakli bo‘lsa ham, ammo [miz] deb talaffuz qilingan: buni turmush qurgan ayolga yoki turmushga chiqmagan qizga nisbatan ham qo‘llash mumkin, chunki bu atama “nikoh” belgisiga ko‘ra neytraldir.

O‘zbek tilida ham bu borada muayyan o‘ziga xoslik bor, ya‘ni qiz so‘zi hali turmushga chiqmagan, yigit so‘zi hali uylanmagan, degan ma‘nolarni anglatadi. Shu o‘rinda uylanmoq va turmushga chiqmoq so‘zlari o‘zbek tilidagina gender xususiyat kasb etadi, chunki ingliz tilida [to get married] uylanmoq va turmushga chiqmoq ma‘nolarini anglatadi. Xuddi shunday turkiy tillar oilasiga kiruvchi usmonli turk tilida ham [evlanmak] ham uylanmoq, ham turmushga chiqmoq ma‘nolarida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa bu rus tilidagi kabi gender farqlanishga olib keladi [жениться – выйти замуж].

O‘zbek tilida gender xususiyatga ega bo‘lgan tarixiy til birliklari, xususan, eskirgan so‘zlar mavjud bo‘lib, bu atamalar insonlarning jinsiga ham ishora qilgan: mulla, mullavachcha (madrassa ta‘limini ko‘rgan o‘g‘il bola yoki erkak), otin, otinoyi – (madrassani



tugatgan qiz yoki ayol) bundan tashqari bek va begoyim atamalari ham mavjud bo‘lib, bu ham jinsiy farqlanishni anglatadi.

Rus tilida ham inqilobdan oldingi davrda “turmushga chiqqan / turmushga chiqmagan” semalari faollashgan («барышня / барыня», «княжна / княгиня») murojaatlar bo‘lgan. Ammo inqilobdan keyin “o‘rtoq” so‘zi qo‘llanishi bilan, nafaqat “turmushga chiqqan” semasi, balki “ayollik” semasi ham yo‘qoldi. Lekin biroz vaqt o‘tgach “гражданин / гражданка” rasmiy murojaati faollashdi va bu ma‘no hozir ba‘zi noxush holatlar (sud, hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlar va boshqalar) bilan bog‘landi.

Zamonaviy rus tilida notanish odamga hech qanday murojaat shakli yo‘q va har bir ona tili bu muammoni o‘z holicha hal qiladi: «господин / госпожа», – «сударь / сударыня» so‘zlarini ishlatadi, kimdir transportda yoki do‘konda murojaatdan jinsga qarab foydalanadi: «мужчина/женщина», «девушка/парень».

O‘zbek tilida ismlarga qo‘shilib keluvchi ayrim qo‘shimchalar so‘zlarning gender farqlanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, otlarga xos bo‘lgan -xon, -oy, -jon, -begim, -bek grammatik shakllari ayrim otlarga qo‘shilib so‘zlarda jinsga ko‘ra farqlash vazifasini bajaradi: O‘zbekxon – O‘zbekoyim.

Ayol va erkak suhbatlarining odatiy yoki kutilgan mavzulari ham farq qiladi. Bir jinsdagi guruhlarda ayollar ijtimoiy emas, balki odatdagi uy, oila, munosabatlar, his-tuyg‘ular, uy ishlari haqida ko‘proq gapirishadi. O‘z navbatida, erkaklar siyosat, sport, ish, texnologiya haqida gapirishni afzal ko‘rishadi. Ularning hikoyalarida asosiy mavzu ko‘pincha raqobat, musobaqa bo‘ladi. Fonetik, morfologik, leksik sathlarda erkaklar va ayollarning nutqi tahlil qilinganda, tadqiqotchilar ayol va erkak nutqida farqlar bor degan xulosaga kelishadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ushbu farqlarning nouniversalligi hamma tomonidan tan olinadi. Boshqacha qilib aytganda, qayd etilgan xususiyatlar o‘zgarmas qonunlar emas, balki ulardan foydalanish tendensiyalari barchaga ma’lum. Ayol yoki erkak fazilatlarini va kommunikativ xatti-harakatlar strategiyasi, ayollar yoki ayollarga xos bo‘lgan narsalar haqida gapirish mumkin, ammo vaziyatga, atrof-muhitga va aloqa maqsadlariga qarab, ayollar “erkak nutqi” dan foydalanishlari mumkin va erkaklar – “ayol nutqi” dan. Masalan, morfologik darajada I. N. Kavinkina quyidagi farqlarni ajratadi.



- ayollar erkaklar bilan solishtirganda kichraytirish, erkalash, kichraytirish-erkalash ma'nolariga ega bo'lgan ko'p sonli qo'shimchalardan foydalanadilar. Ko'rinib turibdiki, bu hodisa ayollarning kichraytirish, erkalashning turli ottenkalarini uzatish uchun ekspressiv vositalar to'plamini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Bu esa hissiy-baho belgisining namoyon bo'lish darajasini oshiradi, belgining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi, shuningdek unga munosabatini bildiradi;

- ayollarning yozma nutqida asosan, -ochk- -echk-, -k-, -ik-, yenk-. qo'shimchalari uchraydi. Erkaklarning yozma nutqi uchun boshqa qo'shimchalar xarakterlidir: -k-, -ok-, -ik-, -ochk-;

- erkak nutqidagi kichraytiruvchi shakllar kichkina bolalar va yaqin odamlari haqida gap ketganda yoki kichik hajmlar va razmerlar ifodalangan holatlarda qo'llaniladi. Ayollar ko'pincha tashqi dunyo bilan ko'p qirrali munosabatlarni hissiy jihatdan yetkazish uchun kichraytiruvchi vositalardan foydalanadilar. Erkaklarning yozma nutqi ko'p jihatdan ayol nutqidan farqli o'laroq, kichraytirish shakllarini o'z ichiga oladi, ayollarning yozma nutqida esa otlarning kichraytirish va erkalash shakllari teng darajada qo'llanadi;

- erkaklar, ayollar bilan solishtirganda, asosan, jonli va jonsiz jenskiy roddagi yasama otlarni kichraytirish va erkalash qo'shimchalari bilan ishlatadilar.

Z.Z.Ishakova shuningdek, kundalik vaziyatlarda erkaklarning nutqi aniqligi, terminlarga boyligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Bunday holatlarda ayollar tez-tez taxminiy belgilar, nominasiyalardan foydalanadilar. Nutqda miqdor ifodalovchi raqamlarning turlicha qo'llanilishi ham shu bilan izohlanadi. Hisob - kitoblarni boshqarishga erkaklar katta e'tibor berishadi, ular uchun referentning miqdoriy xarakteristikasi muhim, ayol uchun esa bu taxminiy.

Bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda sport, san'at, madaniyat, chet tilni o'rgatish va boshqa ko'plab sohalarning o'rni beqiyosdir. Bugungi ma'naviy-madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" insonparvar jamiyat qurishdek ulug'vor vazifani amalga oshirishga qaratilgan. Imkoniyati cheklangan farzandlarimizni ehtiyotkorona qalbiga quloq solgan holda pedagoglarimiz estetik zavq bilan chet tillarini tilni o'zini emas uning madaniyati, urf-odati, dini, e'tiqodi kabilarni



bizning mentalitetimizga xos tarzda qiyoslab o'rgatilsa, ularning ham o'z o'rnini ega bo'lishiga ko'mak bo'lar edi. Ayniqsa chet tillaridan ingliz tili dunyo tili sifatida bizning imkoniyati cheklangan farzandlarimiz qalbidan o'rin olgan holda jamiyatda tezroq kamol topishiga turtki bo'ladi.

Buning uchun pedagoglarimiz maxsus o'z ustida ishlamo'g'i lozim. Zero, istiqlol sharofati bilan yurtimizda sog'lom dunyoqarashli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida turli ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ular yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadigon bir paytda imkoniyati cheklangan farzandlarimizni xam nazardan qoldirilmayotganligi Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning alohida e'tiboridaligi xalqimizning yuzidir, kelajagidir, faxridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gender asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2003. – 480 b.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. – Toshkent: 2007. – 137 b.
3. Аликаев Р.С. Язык науки в парадигме современной лингвистики. - Нальчик: Эль-Фа, 1999. 318 с. - Библиогр.: С. 291-317.
4. Бакумова Е. В. Речевые маркеры социально-политической идентификации // Языковая личность: проблемы когнитии и коммуникации. – Волгоград, 2001. – С. 236-241.
5. Беляева Ю.В. К вопросу о необходимости исследования проблем маскулинности. // Социальная феминология. Сборник научных статей. – Самара, 1997. – С. 65 – 78.
6. Гак В. Г.Сопоставительная лексикология. М.:Международные отношения, 1977. 17.
- 7.Collins English Dictionary // URL <http://www.thefreedictionary.com/intellect>
- 8.zhenskoe-mnenie.ru